“Niyat” onlayn omonat oferta shartnomasi

(Текс Договора оферты на русском языке приведен на страницах 3-4)

Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” ATB (bundan buyon matnda “Bank” deb nomlanadi) hamda Mobil ilova ishtirokchisi bo‘lgan jismoniy shaxs (bundan buyon matnda “Omonatchi” deb nomlanadi) o‘rtasida elektron shaklda tuzildi.

Shartnoma bo‘yicha hisobvaraqlardan amalga oshiriladigan amaliyotlar va olinadigan ma’lumotlar jismoniy shaxslar uchun “Masofadan turib xizmat ko‘rsatish ilovasi” (bundan buyon matnda “Mobil ilova” deb nomlanadi) orqali amalga oshiriladi.

1. Shartnomaning predmeti

1.1. Bank mazkur shartnomaga asosan Omonatchining pul mablag‘ini naqd pulsiz shaklda “Onlayn omonat” hisobvarag‘iga qabul qilish va shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida hisobvaraqdagi mablag‘ni qaytarish va unga foiz to‘lash majburiyatini oladi.

1.2. Omonatchi “Onlayn omonat” hisobvarag‘idagi mablag‘ini va unga hisoblangan foizlarni Mobil ilova orqali naqd pulsiz shaklda tasarruf etadi.

2. Taraflarning huquq va majburiyatlari

2.1. **Omonatchining huquqlari**

2.1.1. Mobil ilova orqali o‘zining omonat hisobvarag‘idagi mablag‘larini erkin tasarruf etish;

2.1.2. Omonat hisobvaraqlari aylanmasi to‘g‘risida ma’lumot olish;

2.1.3. Omonati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolik kodeksi”ga asosan ishonchnoma berishi yoki vasiyatnoma rasmiylashtirishi mumkin.

2.1.4. Omonatchi omonat ochilgan sanadan boshlab omonat shartlariga muvofiq tegishli bank amaliyotlarini bajarish mumkin.

2.1.5. Mijoz o‘zining abonent raqamiga Bank tomonidan yuboriladigan reklama qo‘ng‘iroqlari va xabarlarini o’z so’roviga(arizasiga) ko’ra bloklash(rad etish) huquqiga ega. Bank mijozning ushbu so’rovi asosida reklama materiallarini SMS-xabarnomalar orqali yuborishni va reklama qo‘ng‘iroqlarini amalga oshirishni to‘xtatish majburiyatini oladi.

2.1.6. Mijoz istalgan vaqtda Bankka yozma ariza berish, Aloqa markaziga murojaat qilish yoki “Hamkor” mobil ilovasi sozlamalari orqali Bank tomonidan tarqatiladigan reklama qo‘ng‘iroqlari va SMS –xabarnomalarni o‘z so‘roviga ko‘ra bloklashni(olishni rad etishni) talab qilish huquqiga ega. Bank Mijozdan bunday so‘rov kelib tushgan vaqtdan boshlab reklama materiallarini SMS –xabarnomalar orqali yuborishni va reklama qo’ngiroqlarini amalga oshirishni bloklash majburiyatini oladi.

2.1.7. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 762-moddasiga muvofiq, omonatning muddati tugagach yoki muddatidan avval omonatdagi mablag‘larni yoxud uning bir qismini ushbu Ofertalaning 4.1.6-bandida hamda Omonatning asosiy (individual) shartlarida belgilangan tartibda talab qilib olish. Bunda omonat muddatidan oldin talab qilib olinganda foizlar Omonatning asosiy (individual) shartlarida nazarda tutilgan miqdorda va tartibda to‘lanadi.

2.2. **Bankning huquqlari**

2.2.1. Omonatchi tomonidan shartnomani muddatidan avval bekor qilinganda omonatga hisoblangan va to‘langan foizlarni shartnomada belgilangan miqdorda qayta hisob-kitob qiladi hamda ortiqcha to‘langan summalarni omonat summasidan chegirib qoladi;

2.2.2. Bankning ichki Mobil ilovasiga bog‘liq bo‘lmagan sabablar natijasida Mobil ilovada to‘g‘ri shakllanmagan onlayn omonatlar uchun hech qanday foiz to’lanmaydi;

2.2.3. Norezident shaxslarga to’langan omonat foiz summasidan 10 (o’n) foiz daromad solig’i ushlab qolinadi. Omonatchi soliq rezidenti ekanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etsa 10 (o’n) foiz daromad solig’i ushlanmaydi.

2.2.4. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunlariga asosan Omonatchining hisobvarag‘i xatlanganda, Bank tomonidan omonat hisobvarag‘i orqali amaliyot bajarish to‘xtatiladi.

2.2.5. Bank, Mijozning oldindan olingan yozma yoki elektron roziligi asosida, unga bank mahsulotlari va xizmatlari to‘g‘risidagi reklama materiallari hamda takliflarni telekommunikatsiya tarmoqlari va SMS-xabarnomalar orqali yuborish va reklama qo’ngiroqlarini amalga oshirish huquqiga ega.

2.3. **Omonatchining majburiyatlari**

2.3.1. Masofadan turib “Onlayn omonat” hisobvarag‘i ochish uchun “Hamkorbank” ATB tomonidan muomalaga chiqarilgan bank kartasiga ega bo‘lishi va Mobil ilovadan ro‘yxatdan o‘tadi;

2.3.2. Shartnoma tuzish uchun o‘zining bank kartasida yoki Hamyon (22616) hisobvarag‘ida omonatga kirim qilishni rejalashtirilgan mablag‘ni shakllantiradi;

2.3.3. “Onlayn omonat” hisobvarag‘idan amaliyotlarni amalga oshirish davomida har qanday xatoliklar yuzaga kelganda zudlik bilan o‘ziga yaqin Bank tarmoqlariga yoki bankninig “Aloqa markazi”ga habar beradi;

2.3.4. Omonatdan qisman mablag’ chiqim qilish yoki omonatni muddatidan avval yopish uchun omonatchining uyali telefon raqamiga SMS xabar orqali yuborilgan **maxsus kod**ni boshqa shaxslarga oshkor qilmaydi;
2.3.5. Mobil ilova orqali bank amaliyotlarini boshqa shaxslar ishtirokisiz yoki kuzatuvisiz amalga oshiradi;
2.3.6. Shartnomaning 3.1-bandi bo‘yicha shartnomaning amal qilish muddatini nazorat qilish.
2.3.7. Bank tomonidan yuboriladigan barcha xabarlarni, jumladan, Hamkor-mobil ilovasidagi bildirishnomalarni, SMS va PUSH-xabarnomalarni diqqat bilan o‘rganib chiqish.
2.3.8. Qurilma (mobil telefon) yo‘qolganligi yoki qurilmani boshqarish uchinchi shaxslarning nazoratiga o‘tganligi fakti aniqlangan paytdan e’tiboran darhol, biroq 1 (bir) kundan kechiktirmasdan Bankni xabardor qilish.
2.3.9. Mijozning roziligisiz amalga oshirilgan operatsiya fakti aniqlangan paytdan e’tiboran 1 (bir) kun ichida Bankni xabardor qilish.
2.3.10. Bankning so‘roviga asosan operatsiya shaxsan Mijoz tomonidan yoki Mijozning topshirig‘iga ko‘ra yoxud uning ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish.
2.3.11. Bankning so‘roviga asosan yoki mustaqil ravishda aniqlangan firibgarlik holatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Bankka taqdim etish.
2.3.12. Yangi qurilmadan mavjud qayd yozuviga (akkauntga) kirish uchun, shuningdek, parolni tiklash jarayonida Mijoz Bank tomonidan belgilangan tartibda masofaviy biometrik identifikatsiya jarayonidan o‘tish majburiyatini oladi. Mijoz biometrik identifikatsiyadan o‘tishdan bosh tortish Hamkor mobil ilovasi orqali xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yo‘qqa chiqarishini tan oladi.
2.3.13. Mijoz firibgarlik operatsiyalarining oldini olish maqsadida qurilmani masofadan boshqarish belgilari aniqlanganda yoxud audio/video qo‘ng‘iroqlar (shu jumladan messenjerlar orqali) amalga oshirilayotgan paytda Bankning Hamkor mobil ilovasi faoliyatini avtomatik ravishda cheklash yoki bloklash huquqini tan oladi va bunga o‘zining so‘zsiz roziligini beradi.
2.3.14. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 762-moddasi uchinchi qismiga muvofiq, agar Omonatchi muddatli yoki boshqa omonatni (talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatdan tashqari) shartnoma muddati tugagunga qadar yoxud shartnomada ko‘rsatilgan boshqa holatlar yuz bergunga qadar qaytarib olishni talab qilish niyatida bo‘lsa, o‘zining bu niyati to‘g‘risida Bankni mablag‘larni olish mo‘ljallanayotgan sanadan kamida bir oy oldin (mobil ilova orqali masofadan turib yopiladigan onlayn omonatlar bundan mustasno) xabardor qilishi shart. Mazkur xabardor qilish tartibi Omonatchining birinchi talabiga ko‘ra omonat summasini yoki uning bir qismini muddatidan oldin qaytarib olish bo‘yicha qonuniy huquqini cheklamaydi.

2.4. **Bankning majburiyatlari**
2.4.1. Omonatchining Mobil ilova orqali topshirig’i bilan onlayn omonat hisobvarag‘i ochadi;
2.4.2. Omonatchiga uning pul mablag‘larini omonatga qabul qilinganligi to‘g‘risida Mobil ilova orqali yoki SMS xabar bilan tasdiqlaydi;
2.4.3. Har kuni 24 soat davomida Omonatchining onlayn tarzdagi topshirig‘iga asosan tegishli bank amaliyotlarini bajaradi;
2.4.4. Omonatga foizlar mablag‘ bankka kelib tushgan kunning ertasidan boshlab, to omonat mablag‘ini Omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra uning hisobvarag‘idan o‘chirilgan kundan oldingi kungacha hisoblaydi hamda shartnomada kelishilgan muddatlarda hisoblangan foizlarni omonatchining talab qilib olunguncha omonat hisobvarag‘iga o‘tkazadi;
2.4.5. Muddati kelgan omonat hisobvarag’idagi qoldiqlar omonatchining Hamyon hisobvarag‘iga o‘tkaziladi;
2.4.6. Omonatchining murojaatlarini bank ish kunlarida mijozlarga xizmat ko‘rsatish vaqtida qabul qiladi;
2.4.7. O‘zbekiston Respublikasining “Banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq omonatchining bankdagi barcha omonat hisobvaraqlaridagi qoldiqlar summasining 200.0 mln (ikki yuz million) so’mgacha qismiga kompensatsiya to’lanadi. Kompensatsiya to‘lash ishlari ushbu qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
2.4.8. Bank Omonatchilar uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan cheklovlar o‘rnatishga haqli emas;
2.4.9. Omonatchining omonat hisobvarag‘idan amaliyotlar bajarish to‘xtatilganligi yoki uning topshirig‘isiz omonat hisobvarag‘idan mablag‘lar o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi xabarni keyingi ish kunidan kechikmagan holda yuboradi.

3. Shartnoma bo‘yicha hisob-kitob qilish tartibi

3.1.	Shartnomaning amal qilish muddati	3 (uch) oy
3.2.	Omonatni yillik foiz stavkasi	14 (o‘n to‘rt) foiz
3.3.	Omonatni 1 oy davomida yopilganda yillik foiz stavkasi	Foiz to‘lanmaydi (yillik 0%)

3.4.	Omonatni 2-3 oylar davomida yopilganda yillik foiz stavkasi	10 (o‘n) foiz
3.5.	Omonatga qo‘shimcha mablag‘ kirim qilish	Mavjud
3.6.	Omonatdan qisman mablag‘ chiqim qilish	Mavjud emas
3.7.	Omonat foizini to‘lash davri	Har oyda
3.8.	Omonatning boshlangich summsi va eng kam miqdori	100 000 (bir yuz ming) so‘m

4. Taraflarning javobgarligi

4.1. Taraflar ushbu Shartnomaga belgilangan o‘z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun amaldagi qonunchilikka asosan javobgar bo‘ladilar.

5. Shartnomani amal qilish muddati va bekor qilish tartibi

5.1. Shartnoma omonat hisobvarag‘iga mablag‘ qabul qilingan kundan boshlab shartnomaning 3.1-bandida belgilangan muddatgacha amal qiladi.

5.2. Omonatchi omonat mablag‘ini muddatidan avval qaytarib olishi mumkin. Bunda, ushbu shartnoma shartlari buzilgan hisoblanadi va foizlar qayta hisob-kitob qilinadi. Avvalgi sanalarda to‘langan foizlar omonat summasidan chegirib qolinadi.

6. Maxfiylik

6.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida Taraflar bir-biridan olgan barcha ma’lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

6.2. Taraflar shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog‘ida boshqa Tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma’lumotlarni axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.
Mazkur talab nomuayyan muddatga amal qiladi.

6.3. Ushbu talablarni buzgan Taraf buning oqibatida ikkinchi Tarafga yetkazilgan barcha zararni to‘liq hajmda qoplaydi.

7. Fors – major holatlar

7.1. Taraflar ushbu Oferta bo‘yicha majburiyatlarni to‘liq yoki qisman bajarmaganlik uchun, agar lozim darajada bajarish yengib bo‘lmas kuch, ya’ni muayyan sharoitlarda favqulodda va oldini olib bo‘lmaydigan holatlar oqibatida mumkin bo‘lmay qolgan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladilar.

7.2. Fors-major holatlarining yuzaga kelishi Bankni Omonatchining birinchi talabiga ko‘ra omonat summasini qaytarish majburiyatidan (O‘zR FK 762-moddasi) ozod etmaydi. Masofaviy bank xizmati tizimlarida texnik uzilishlar yuzaga kelgan taqdirda, Omonatchi omonat mablag‘larini Bankning istalgan xizmat ko‘rsatish ofisi orqali talab qilib olish huquqiga ega.

8. Nizolarni hal qilish tartibi

8.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar.

8.2. O‘zaro kelishuv imkoniyati bo‘lmaganda, huquqi buzilgan Taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi Taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko‘rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.

8.3. Muzokara yo‘li bilan hal etilmagan nizolar O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligida belgilangan tartibda Sud orqali hal etiladi.

9. Alohida shartlar

9.1. Mijoz ushbu Oferta (shartnoma) shartlarini qabul qilishi (aktsept qilishi) orqali, Bankka o‘zining Abonent raqamiga bank mahsulotlari, xizmatlari va aksiyalarini taklif qiluvchi SMS-xabarnomalar yuborilishi va reklama qo‘ng‘iroqlari amalga oshirilishiga o‘zining to‘liq va so‘zsiz roziligini bildiradi.

Договор оферты онлайн вклада “Niyat”

Настоящий договор составлен в электронной форме между АКБ “Hamkorbank” с участием иностранного капитала (именуемый в дальнейшем “Банк”) и физическим лицом, который является участником системы (именуемый в дальнейшем “Вкладчик”).

Осуществляемые операции и получаемые сведения со счетов по договору для физических лиц выполняются через "Систему дистанционного обслуживания" (именуемый в дальнейшем “Мобильное приложение”).

1. Предмет договора

1.1. На основе настоящего договора Банк принимает денежные средства Вкладчика на счет "Онлайн вклада" в безналичной форме и на основании условий предусмотренных в договоре берёт на себя обязательство по возврату денежных средств на счете и выплате по ним процентов.
1.2. Вкладчик распоряжается средствами на счете "Онлайн вклада" и начисленных к ним процентами в безналичной форме через Мобильное приложение.

2. Права и обязательсьтва сторон

4.1. **Права Вкладчика**

4.1.1. Свободное распоряжение средствами в своем вкладном счете через Мобильное приложение;
4.1.2. Получение сведений об оборотах по вкладному счету.
4.1.3. Вкладчик может оформить доверенность или завещание по своему вкладу, согласно “Гражданского кодекса” Республики Узбекистан.
4.1.4. Вкладчик вправе осуществлять банковские операции в соответствии с условиями вклада со дня открытия вклада.
4.1.5. Клиент имеет право по своему запросу (заявлению) заблокировать (отказаться от получения) рекламные звонки и уведомления, направляемые Банком на его Абонентский номер. Банк обязуется прекратить направление рекламных материалов посредством SMS-уведомлений и осуществление рекламных звонков на основании данного запроса Клиента
4.1.6. Клиент имеет право в любое время потребовать блокировки (отказа от получения) рекламных звонков и SMS-уведомлений, распространяемых Банком, путем подачи письменного заявления в Банк, обращения в Контакт-центр или через настройки мобильного приложения «Hamkor». Банк обязуется заблокировать направление рекламных материалов посредством SMS-уведомлений и осуществление рекламных звонков с момента поступления такого запроса от Клиента
4.1.7. В соответствии со статьёй 762 Гражданского кодекса Республики Узбекистан востребовать средства вклада или их часть по истечении срока вклада или досрочно в порядке, установленном пунктом 4.1.6 настоящей Оферты и Основными (индивидуальными) условиями Вклада. При этом при досрочном востребовании вклада проценты выплачиваются в размере и порядке, предусмотренных Основными (индивидуальными) условиями Вклада.

4.2. **Права Банка**

4.2.1. В случае досрочного расторжения договора со стороны вкладчика начисленные и выплаченные по вкладу проценты пересчитываются в размере, указанном в договоре, а излишне уплаченные суммы удерживаются из суммы вклада;
4.2.2. По некорректно оформленным онлайн вкладам в Мобильном приложении по причинам, не связанным с внутренним Мобильным приложением Банка, проценты не оплачиваются;
4.2.3. С суммы процентов по вкладам, выплачиваемых нерезидентам, удерживается подоходный налог в размере 10 (десяти) процентов. При предоставлении вкладчиком документа, подтверждающего статус налогового резидента, подоходный налог в размере 10 (десяти) процентов не удерживается.
4.2.4. В случае ареста счета Вкладчика на основании действующего законодательства Республики Узбекистан Банк прекращает осуществление операций через вкладный счета.
4.2.5. Банк, на основании предварительного письменного или электронного согласия Клиента, имеет право направлять ему рекламные материалы и предложения о банковских продуктах и услугах через сети телекоммуникаций и SMS-уведомления, а также осуществлять рекламные звонки.

4.3. **Обязательства Вкладчика**

4.3.1. Для дистанционного открытия онлайн вклада Вкладчику необходимо иметь банковскую карту, выпущенную АКБ “Hamkorbank” и зарегистрироваться в Мобильном приложении;
4.3.2. Для заключения договора вкладчик формирует планируемую сумму вклада на своей банковской карте или счете Кошелька (22616);
4.3.3. В случае возникновения ошибок при осуществлении операций по счету Онлайн вклада незамедлительно сообщить об этом в ближайшее отделение или в «Контакт-центр» Банка;
4.3.4. Не разглашать другим лицам специальный код отправленный SMS сообщением на мобильный номер вкладчика для частичного снятия средств со вклада или для досрочного закрытия вклада;
4.3.5. Осуществлять банковские операции посредством мобильного приложения без участия или без наблюдения других лиц;
4.3.6. Контролировать срок действия договора по пункту 3.1 настояшего договора.
4.3.7. Внимательно ознакомиться со всеми сообщениями, направляемыми Банком, включая уведомления в мобильном приложении Hamkor, а также SMS и PUSH-уведомления.
4.3.8. При обнаружении факта утери устройства (мобильного телефона) либо перехода контроля над ним к третьим лицам, Клиент обязан незамедлительно, не позднее чем в течение 1 (одного) дня, уведомить Банк.

4.3.9. Клиент обязан уведомить Банк о факте совершения операции без его согласия в течение 1 (одного) дня с момента выявления указанного факта.

4.3.10. По запросу Банка предоставить подтверждающую информацию о том, что операция осуществлена самим Клиентом, по его поручению или третьим лицом с его согласия.

4.3.11. По запросу Банка либо самостоятельно предоставлять Банку информацию о выявленных фактах мошенничества.

4.3.12. При осуществлении входа в ранее созданную учетную запись (аккаунт) с нового устройства, а также в процессе восстановления пароля Клиент обязан пройти дистанционную биометрическую идентификацию в соответствии с порядком, установленным Банком. Клиент подтверждает, что отказ от прохождения указанной идентификации влечёт невозможность использования услуг через мобильное приложение Hamkor.

4.3.13. Клиент соглашается, что Банк может автоматически ограничивать или блокировать работу приложения Hamkor при признаках удалённого управления устройством или при аудио-/видеозвонках (в том числе через мессенджеры) для предотвращения мошенничества.

4.3.14. В соответствии с частью третьей статьи 762 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, если Вкладчик намерен потребовать возврата срочного или иного вклада (за исключением вклада до востребования) до истечения срока договора либо до наступления иных обстоятельств, указанных в договоре, он обязан уведомить Банк о своём намерении не менее чем за один месяц до предполагаемой даты получения средств (за исключением онлайн-вкладов, закрываемых дистанционно через мобильное приложение). Данный порядок уведомления не ограничивает законное право Вкладчика на досрочный возврат суммы вклада или её части по его первому требованию.

4.4. **Обязательства банка**

4.4.1. Открывать вкладной счет онлайн по заявлению вкладчика через Мобильное приложение;

4.4.2. Подтверждать принятие денежных средств Вкладчика на вклад через Мобильное приложение или SMS-сообщением;

4.4.3. Каждый день в течении 24 часов осуществлять банковские операции согласно онлайн поручений вкладчика.

4.4.4. Проценты по вкладу начисляются со дня, следующего за днем поступления денежных средств в банк, по день, предшествующий дню возврата вклада Вкладчику или списания с его счета по иному основанию, а начисленные проценты в сроки, предусмотренные договором, перечисляются на вкладу до востребования вкладчика;

4.4.5. Остатки на вкладном счете, срок действия которого истек, переводятся на счет в кошельке вкладчика;

4.4.6. Принимать обращения Вкладчика в рабочие часы обслуживания клиентов в рабочие дни банка;

4.4.7. В соответствии с Законом Республики Узбекистан «О гарантиях защиты вкладов в банках» вкладчику выплачивается компенсация на сумму остатка по всем его вкладным счетам в банке в пределах 200,0 млн (двухсот миллионов) сумов. Выплата компенсации осуществляется в порядке, установленном данным законом.

4.4.8. Не вправе устанавливать ограничения Вкладчикам, не предусмотренные законадательством.

4.4.9. Отправлять Вкладчику оповещения по его выбранному методу, не позднее следующего рабочего дня, об операциях перевода средств со счетов Вкладчика без его поручения или о приостановке операций по вкладному счету Вкладчика.

5. Порядок расчета по договору

3.1.	Срок действие договора	3 (три) месяца
3.2.	Годовая процентная ставка по договору	14 (четырнадцать) процентов
3.3.	Процентная ставка при закрытии вклада в течение 1 месяца	Проценты не выплачиваются (0% годовых)
3.4.	Процентная ставка при закрытии вклада в течение 2-3 месяцев	10 (десять) процентов
3.5.	Возможность зачисление дополнительных средств на счет	Имеется
3.6.	Возможность частичных отчислений от счета	Не имеется
3.7.	Порядок оплаты начисленных процентов	Ежемесячно
3.8.	Первоначальная и минимальная сумма вклада	100 000 (сто тысяч) сум

6. Ответственность сторон

6.1. Стороны несут ответственность на основе действующего законодательства за невыполнение или ненадлежащее выполнение обязательств по настоящему договору.

7. Срок действия и порядок расторжения договора

7.1. Договор вступает в силу начиная с даты составления и действует до срока указанного в пункте 3.1.

7.2. Вкладчик может расторгнуть договор досрочно. При этом это является нарушением условий настоящего договора и уплаченные проценты вычитаются от суммы вклада.

8. Конфиденциальность

8.1. В период составления и выполнения настоящего договора сведения полученные сторонами признаются конфиденциальной информацией.

8.2. В период составления и выполнения обязательств Стороны обязуются не разглашать конфиденциальную информацию и сведения, которые являются коммерческой тайной без письменного согласия владельца информации.
Данное требование действуют на неопределенный срок.

8.3. Сторона, нарушившая данные требования покрывает в полном объеме нанесенный ущерб второй стороне.

9. Форс-мажорные обстоятелсьтва

9.1. Стороны освобождаются от ответственности за полное или частичное неисполнение обязательств по настоящей Оферте, если надлежащее исполнение оказалось невозможным вследствие непреодолимой силы, то есть чрезвычайных и непредотвратимых при данных условиях обстоятельств.

9.2. Наступление форс-мажорных обстоятельств не освобождает Банк от обязанности возвратить сумму вклада по первому требованию Вкладчика (статья 762 Гражданского кодекса Республики Узбекистан). В случае технических сбоев в системах дистанционного банковского обслуживания Вкладчик вправе востребовать средства вклада через любой офис обслуживания Банка.

10.Порядок улегулирования конфликтов

10.1. Стороны разрешают любые разногласия и споры, возникающие при исполнении настоящего Договора, путем переговоров.

10.2. При невозможности достижения взаимного соглашения другая Сторона обязана ответить на запрос или предупредительное письмо, направленное Стороной, права которой нарушены, в срок, указанный в таком запросе или в предупредительном письме.

10.3. Споры не разрешенные путем переговоров, разрешаются судом в порядке, установленном законодательством Республики Узбекистан.

11.Особые условия

11.1. Принятием (акцептом) условий настоящей Оферты (договора) Клиент выражает свое полное и безоговорочное согласие на направление Банком на его Абонентский номер SMS-уведомлений, предлагающих банковские продукты, услуги и акции, а также на осуществление рекламных звонков.